



**“O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH
MAQSADLARIGA ERISHISH VA YASHIL
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING
ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI”**

**xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

14-15 aprel

2



Buxoro - 2025

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Buxoro davlat universiteti
“Yashil iqtisodiyot va agrobiznes” kafedrası**

**"O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH
MAQSADLARIGA ERISHISH VA YASHIL IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI"**

**Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

2025 yil, 14-15 aprel

2

Buxoro – 2025

“O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami.
2025-yil 14-15-aprel: - Buxoro : “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona Nashriyoti, 2025.- 442-b.

1. Quyidagi tarkibdan iborat dasturiy qo'mita

- | | | | |
|-----|---------------------|---|---|
| 1. | O.X. Xamidov | – | Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais; |
| 2. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini; |
| 3. | D.Sh.Yavmutov | – | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha Birinchi prorektor, DSc., prof. a'zo; |
| 4. | A.T.Jo'rayev | | Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor, i.f.n, a'zo; |
| 5. | N.S. Ibragimov | – | Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, v.b., i.f.d., prof. a'zo; |
| 6. | B.N. Navruz-Zoda | – | Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., a'zo; |
| 7. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d, a'zo; |
| 8. | M.A. Oripov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.n., a'zo; |
| 9. | X.R.Turobova | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a'zo; |
| 10. | S.S.Davlatov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a'zo; |

2. Quyidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo'mita

- | | | | |
|-----|----------------|---|--|
| 1. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais; |
| 2. | N.S. Ibragimov | – | Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, v.b., DSc., i.f.d. prof, rais muovini; |
| 3. | O'U.Rashidov | – | Moliya va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektor, a'zo; |
| 4. | O.S.Qahhorov | – | Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, a'zo; |
| 5. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, a'zo; |
| 6. | M.A. Oripov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.n., a'zo; |
| 7. | X.R.Turobova | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a'zo; |
| 8. | S.S.Ro'ziyev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o'qituvchisi, i.f.n, a'zo; |
| 9. | F.K.Saidova | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 10. | A.D.Qudratov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 11. | N.D. Salixov | - | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |

Mazkur to'plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g'oyalar mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o'zlari mas'uldirlar.

5. Qodirov U., Norqulov B. “Agrobiznes va qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlik.” Toshkent: Fan, 2020.
6. Dehkanov Sh., To‘rayev M. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va agroxizmatlarni takomillashtirish.” Samarqand, 2019.
- Джураева Д. Д., Джураева Л. Р., Ниязов Л. Н. Мотивация как фактор развития потенциала учащихся в высших технических учебных заведениях //Актуальные проблемы социологии молодежи, культуры, образования и управления. Т. 3.—Екатеринбург, 2014. – 2014.
7. Джураева Д. Д. К., Бердиева З. М. Культурное наследие как фактор развития человеческого потенциала (на примере Узбекистан) //Ученый XXI века. – 2016. – Т. 25.
8. kizi Djurayeva D. D. et al. Scientific and methodological aspects of the formation of an innovative set of services //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 227-238.
9. Джураева Д. Д. Массовая культура и человеческий потенциал //Ученый XXI века. – 2017. – С. 99.
10. Джураева Д. Д. Роль инновационных идей и разработок в развитие услуг //Мировая наука. – 2019. – №. 4. – С. 278-281.
11. Джураева Д. Д. ВЛИЯНИЕ МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ НА ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ //ДНИ НАУКИ–2017. – 2017. – С. 33.
12. Джураева Д. ИННОВАЦИОН ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИ ИСЛОХ ҚИЛИШДА ИНТЕГРАЦИОН АЛОҚАЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – Т. 24. – №. 1. – С. 94-101.
13. Djuraeva D. Инновацион хизматлар кўрсатиш самарадорлигини оширишнинг тизимли бошқариш модели //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
14. Djuraeva D. Improving the effectiveness of developing innovative approaches to expanding new types of services //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 12. – №. 12.

BuxDU “Yashil iqtisodiyot va agrobiznes” kafedrasi dotsenti, PhD

Kadirova Maral Matyakubovna

BuxDU, “Agrobiznes va investitsion faoliyat” ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Zohidov Olmosbek

ORGANIK AGRO OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH YO‘LLARI

ANNOTATSIYA: Maqolada organik oziq-ovqat mahsulotlar, uning kelib chiqish tarixi, hayotimizdagi o‘rni, zaruriyati, unga oid mamlakatimizdagi qonunlar haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada organik mahsulotlardan keng qamrovli foydalanish yo‘llari va usullari to‘g‘risida so‘z boradi.

KALIT SO‘ZLAR: Organik, modifikatsiya, genetik, biologik preparatlar, Ekologik muvozanat, Kimyoviy moddalar, Rotatsiya, Biologik nazorat, Organik qishloq xo‘jaligida.

ANNOTATION: The article provides information about organic food products, their history of origin, their role in our lives, their necessity, and the laws in our country regarding them. The article also discusses the ways and methods of comprehensive use of organic products.

KEYWORDS: Organic, modification, genetic, biological preparations, Ecological balance, Chemical substances, Rotation, Biological control, Organic agriculture.

АННОТАЦИЯ: В статье представлена информация об органических продуктах питания, истории их происхождения, их роли в нашей жизни, их необходимости и законах нашей страны в отношении них. В статье также рассматриваются пути и методы комплексного использования органических продуктов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Органический, модификация, генетический, биологические препараты, Экологический баланс, Химические вещества, Севооборот, Биологический контроль, Органическое сельское хозяйство.*

1. Kirish.

So'nggi yillarda, ekologik xavfsizlik va sog'lom turmush tarziga bo'lgan talabning ortishi bilan organik oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Organik qishloq xo'jaligi, pestitsidlar, sun'iy o'g'itlar va boshqa kimyoviy moddalar ishlatmasdan, tabiiy resurslardan foydalangan holda oziq-ovqat yetishtirishni maqsad qiladi. Ushbu maqolada organik agro oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishning asosiy yo'llari va usullari haqida so'z yuritamiz.

Organik agro oziq-ovqat mahsulotlari inson salomatligi uchun xavfsiz, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan va yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga qaratilgan qishloq xo'jaligi usulidir. Ushbu yondashuvda sun'iy kimyoviy moddalar, pestitsidlar va genetik modifikatsiyalangan organizmlardan (GMO) foydalanish qat'iy cheklanadi.

2. Adabiyotlar sharxi.

Biz organik oziq-ovqat mahsulotlari va ularning xususiyatlarini tadqiq etishdan oldin organik oziq-ovqat mahsulotlari mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini yoritishimiz kerak. Xususan, ko'plab fermer xo'jaliklari va xususiy sektorlarni organik oziq-ovqat yetishtirish masalalarining ayrim jihatlarini aytib o'tishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Organik dehqonchilik” iborasi birinchi bor 1940-yilda Britaniyalik yozuvchi va olimpia sportchisi Lord Northborn tomonidan qo'llangan. Uni qo'llab-quvvatlagan holda Rodale, Lady Eve Balfour va Albert Howard fermalarni tabiiy ekotizim sifatida foydalanishga o'tib, kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlarga qarshi kurashgan. “Fermaning o'zi biologik to'liqlikka ega bo'lishi kerak” deb yozadi u. Bu kabi ko'plab so'zlar va iboralar hozir ham ko'plab fermerlar va xaridorlar o'rtasida aytib kelinmoqda. 20-asrning yuz yilida sayyoramizdagi odamlar soni uch barobardan ko'proq o'sdi, ba'zi manbalarga tayanib foizda ifodalasak 293 foizga o'sgan.

Bu esa o'z-o'zidan oziq-ovqat tanqisligiga olib kelishi kutilgan hol edi. 1940-yillarning boshlarida Ayova shtati agronomi Norman Borlaug o'zining salohiyatini ishga solib sun'iy pestitsidlar, o'g'itlar va chatishtirilgan ekinlarni kashf qilib yashil inqilobni boshlab berdi. Bu o'z o'rnida son-sanoqsiz hayotni saqlab qoldi va 1970-yilga kelib Nobel mukofotini qo'lga kiritdi. Ammo har narsani yomon tomoni bo'lgani kabi Lord Northborn aytganidek, sintetik pestitsidlar va o'g'itlar saraton kasalliklari, turli xil sindromlar va atrof-muhit bilan bog'laganimizda “kimyoviy dehqonchilik” biroz yorqinligini yo'qotadi. Aynan shu muammolarga yechim sifatida biz organik oziq-ovqatlarni ko'proq yetishtirilishi tarafdori hisoblanamiz.

“Mamlakatimizda 2022-yil 25-apreldagi O'RQ-766-sonli “Organik mahsulotlar to'g'risida”gi Qonun qabul qilingan bo'lib, u organik mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish, markalash va sotish, shuningdek, muvofiqligini baholash va ruxsat berishni tartibga soladi”¹.

Organik mahsulotlarni belgilashda “Organik”, “Biologik”, “Natural” so'zlari qo'llanilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida tabiiy o'g'itlar va kompostdan foydalanish, crop rotation (ekinlarni almashtirish), biologik nazorat va zararkunandalar bilan kurashish, tabiiy sug'orish va suv resurslarini tejash, tuproqning unumdorligini saqlash va yaxshilash, genetik jihatdan modifikatsiyalangan organizmlardan foydalanmaslik, organik oziq-ovqatlarni yetishtirishning ahamiyati, mavzuga oid olimlarning fikrlari, ularning ilmiy mushohadalari va mavzuga bog'liq

¹ <https://www.agro.uz/11-04430/> - O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining rasmiy veb sayti

ko'plab nazariy adabiyotlar, mantiqiy fikrlash, taqqoslash ilmiy mushohada, tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab ekologik toza va sog'lom oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab keskin ortib bormoqda. Inson salomatligini mustahkamlash va atrof-muhitni himoya qilish maqsadida organik qishloq xo'jaligi usullaridan keng foydalanilmoqda. Organik agro oziq-ovqat mahsulotlari an'anaviy dehqonchilikdan farqli o'laroq, kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlar ishlatilmasdan yetishtiriladi. Bunday mahsulotlar inson organizmi uchun foydali bo'lib, ularning tabiiy ta'mi va ozuqaviy qiymati yuqori bo'ladi. Shu sababli, organik mahsulotlar bozori jadal rivojlanib, xalqaro savdoda ham o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda.

Quyida organik mahsulotlar yetishtirishning texnologiyalari haqida batafsil o'rganamiz.

1. Tabiiy o'g'itlar va kompostdan foydalanish

Organik qishloq xo'jaligida o'simliklarning o'sishini rag'batlantirish va unumdorlikni oshirish uchun sintetik o'g'itlar o'rniga tabiiy o'g'itlar va kompostlardan foydalaniladi. Bu usul yerning tabiiy tuzilishini saqlashga yordam beradi va tuproqdagi mikroorganizmlar faoliyatini rag'batlantiradi. Kompost o'simliklar uchun zarur bo'lgan ozuqa moddalari bilan ta'minlaydi va tuproqning biologik faoliyatini tiklashga yordam beradi.

2. Crop rotation (Almashlab ekish tizimi)

Almashlab ekish tizimi – bu organik qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladigan muhim usuldir. U har bir ekin turining tuproqdan qanday moddalar o'zlashtirishini hisobga olib, bir vaqtning o'zida bir xil turdagi o'simliklarni ekishdan qochishni ta'minlaydi. Bu usul tuproqni mineral ozuqalar bilan boyitish va zararkunandalar bilan kurashishda yordam beradi. Misol uchun, dukkaklilar ekish orqali tuproqda azotning miqdorini oshirish mumkin.

3. Biologik nazorat va zararkunandalar bilan kurashish

Organik qishloq xo'jaligida kimyoviy pestitsidlar o'rniga zararkunandalar va kasalliklar bilan kurashish uchun tabiiy usullar qo'llaniladi. Bunga predatatorlar (masalan, foydali hasharotlar) va biologik preparatlar yordamida zararli organizmlarni nazorat qilish kiradi. Shuningdek, muvozanatli ekin turlari va madaniyatlar orasidagi aloqalarni yaxshilash ham zararkunandalar bilan kurashishda muhim rol o'ynaydi.

4. Tabiiy sug'orish va suv resurslarini tejash

Organik qishloq xo'jaligida sug'orish jarayoni juda muhim hisoblanadi. Sug'orishning tabiiy usullari, masalan, yomg'ir suvlarini yig'ish va suvsizlantirishning oldini olish usullari orqali, suv resurslarini tejashga yordam beradi. O'simliklarni juda ko'p sug'orish o'rniga, yerning namligini nazorat qilish va yuqori samarali sug'orish tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

5. Tuproqning unumdorligini saqlash va yaxshilash

Tuproq unumdorligini saqlash va oshirish organik qishloq xo'jaligining asosi hisoblanadi. Buning uchun tuproqni muntazam ravishda tahlil qilish, uni o'g'itlash, o'simlik qoldiqlarini saqlash va mulchalash kabi usullarni qo'llash mumkin. Mulchalash tuproqning suvni ushlab qolish qobiliyatini oshiradi va o'simliklar uchun zarur bo'lgan ozuqa moddalari zaxirasini ta'minlaydi.

6. Genetik jihatdan modifikatsiyalangan organizmlardan foydalanmaslik

Organik qishloq xo'jaligida GMO (genetik jihatdan modifikatsiyalangan organizmlar) ishlatilmaydi. Bu usulda faqat tabiiy urug'lar va o'simliklar ishlatiladi. GMO o'simliklar o'rniga, an'anaviy va tabiiy seleksiya orqali ishlab chiqilgan urug'lar ekiladi.

Quyida organik oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishning asosiy yo'llari va tamoyillari haqida ma'lumot beramiz.


1. Ekologik muvozanatni saqlash

Organik dehqonchilikda tuproqning unumdorligi, suv resurslari va biologik xilma-xillikni asrash asosiy vazifa hisoblanadi. Buning uchun:

Tuproqni organik o'g'itlar bilan boyitish: Sun'iy o'g'itlar o'rniga go'ng, kompost va yashil o'g'itlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tabiiy suv rejimini tiklash: Sug'orish tizimlarini to'g'ri boshqarish orqali suvning isrof bo'lishini kamaytirish va eroziyani oldini olish zarur.

Biologik xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash: Zararkunandalarga qarshi kurashishda foydali hasharotlar va qushlarni jalb qilish uchun mos sharoitlar yaratish muhim.



2. Kimyoviy moddalar o'rniga tabiiy muqobillarni qo'llash

Organik yetishtirishda pestitsid va gerbitsidlarning o'rnini quyidagi tabiiy usullar bilan to'ldirish mumkin:

Tabiiy pestitsidlar: Neem daraxti yog'i, sarimsoq va achchiq qalampir ekstrakti kabi tabiiy moddalar zararkunandalarga qarshi samarali vosita hisoblanadi.

Yashil o'simliklardan foydalanish: Ba'zi o'simliklar, masalan, gulkaram va yalpiz, hasharotlarni qo'rqitish xususiyatiga ega.

O'zaro mos ekinlar yetishtirish: Bitta maydonda bir nechta turdagi o'simliklarni ekish orqali zararkunandalar ta'sirini kamaytirish va tuproq unumdorligini oshirishga erishiladi.

3. Rotatsiya va ko'p xilma-xillik tamoyillari

Tuproqni ozuqaviy moddalarga boyitish va zararli mikroorganizmlarni kamaytirish uchun ekinlarni muntazam o'zgartirib ekish (rotatsiya) usuli ishlatiladi. Masalan:

Bug'doy va arpa yetishtirilgandan keyin tuproqning azot miqdorini tiklash uchun dukkakli ekinlar (noxat, loviya) ekish.

Foydali mikroflorani rivojlantirish uchun ko'p yillik o'tlarni ekish.



4. GModan voz kechish

Organik dehqonchilikda faqat tabiiy genetik xilma-xillikka ega bo'lgan urug'lar va ko'chatlar ishlatiladi. GMO urug'lar tuproq va ekotizimga uzoq muddatli zarar yetkazishi mumkinligi sababli, ular qat'iy cheklanadi.

5. Zararkunandalar va kasalliklarga qarshi ekologik kurash

Organik qishloq xo'jaligida quyidagi usullar zararkunandalarga qarshi ishlatiladi:

Biologik nazorat: Zararkunandalarni yeyuvchi yoki ularning rivojlanishini to'xtatuvchi foydali hasharotlar (masalan, o'rgimchaklar yoki ari) yetishtirish.

Tabiiy to'siqlar yaratish: Zararkunandalarni cheklash uchun dalalarning chetlariga o'simliklar ekish.

6. Sertifikatlashtirish va nazorat

Organik dehqonchilik bilan shug'ullanayotgan fermerlar xalqaro yoki milliy sertifikatlashtirish tizimiga muvofiq faoliyat yuritishi kerak. Sertifikat organik mahsulotlarning sifati va tabiiy usullar bilan yetishtirilganligini kafolatlaydi.

7. Ta'lim va tajriba almashish

Organik yetishtirishni rivojlantirish uchun fermerlarga muntazam ravishda treninglar o'tkazish, tajribali dehqonlar bilan maslahatlashuvlarni tashkil etish muhimdir.

Organik oziq-ovqatning afzalliklari:

Inson salomatligi uchun xavfsizligi.

Atrof-muhitga zarar yetkazmasligi.

Ekologik tizimni muvozanatda ushlashga yordam berishi.

5. Xulosa va takliflar.

Organik oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish – bu nafaqat sog'lom oziq-ovqatni iste'mol qilish imkoniyatini yaratish, balki ekologik muvozanatni saqlash va tuproq resurslarini tiklashning muhim bir yo'lidir. Organik qishloq xo'jaligi yondashuvlari orqali dunyo bo'ylab sog'lom va xavfsiz oziq-ovqat ishlab chiqarishga ko'maklashish mumkin. Bu usullarni keng joriy etish orqali yerning unumdorligini saqlash, tabiatni himoya qilish va kelajak avlodlar uchun toza va xavfsiz oziq-ovqat ta'minlash mumkin.

Organik agro oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, sog'lom hayot tarzi va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Buning uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sun'iy kimyoviy moddalardan voz kechish va zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalanish zarur. Bu nafaqat inson salomatligi, balki kelajak avlodlar uchun ham barqaror muhit yaratadi.

Adabiyotlar/Итмепамыра/Reference:

1. Алиев А.И. "Экологик деҳқончилик асослари." – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2018.

2. FAO (Food and Agriculture Organization). "Organic Agriculture: Opportunities and Challenges." – Rome: FAO Publications, 2020.

3. Helga Willer, Julia Lernoud. "The World of Organic Agriculture: Statistics and Emerging Trends 2023." – IFOAM & FiBL, 2023.

4. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ Хўжалиги Вазирлиги. "Органик қишлоқ хўжалиги ҳақидаги умумий тушунчалар ва талаблар." – Тошкент, 2022.

5. Lampkin, N. "Organic Farming." – Old Pond Publishing, 2019.

6. Smith, J. E. "Sustainable Agriculture and Organic Food Systems." – New York: Routledge, 2021.

7. IFOAM (International Federation of Organic Agriculture Movements). "Principles of Organic Agriculture." – Bonn, Germany: IFOAM, 2018.

8. Rauf, K. M. "Biological Pest Management for Sustainable Agriculture." – Elsevier, 2020.

9. Uzbekistan Organic Farming Association. "Organik Dehqonchilik Amaliyoti Bo'yicha Qo'llanma." – Тошкент, 2021.

10. Курбанов Ш.Х. "Тупроқ унумдорлигини оширишда органик ёндашув." – Самарқанд: СамДУ нашри, 2020.

11. MM Kadirova [POTENTIALS OF QUEST TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'ECONOMIC SKILLS](#). - Berlin Studies Transnational Journal of Science and ..., 2022

12. Маралжан Матякубовна Кадырова. TALABALARDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA IQTISODIY KO'NIKMALARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI: 2023 Журнал. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал Номер 10 Страницы 136-141

13. M.KADIROVA, O.ZOHIDOV. Fermer xo'jaliklarida investitsiya va uni jalb qilish yo'llari. ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АГРОИҚТИСОДИЙ ЖУРНАЛ. 112-113 bet. / 1 (31) 2024.

14. <https://www.agro.uz/11-04430/-> O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining rasmiy veb sayti

Ramazonov Baxtiyor Ramazonovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
Biologiya fanlari falsafa doktori, dotsent
baxtiyorr254@gmail.com

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA TABIIY RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada organik olamning tabiiy muhit bilan o'zaro ta'siri biologik evolyutsiya jarayonida yangi turlarning paydo bo'lishi, foydali qazilmalarning nihoyatda ko'p miqdorda qazib chiqarilayotganligi, hayvonot va o'simlik olamidan rejasiz, noto'g'ri foydalanilayotganligi, tabiiy resurslarning bir necha belgilariga ko'ra tasniflanganligi, insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri hamda jamiyat bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanishi va hokazolar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Tabiatni muhofaza qilish, "Qizil kitob", biosfera, bioxilma-xillik, ekologiya, o'simliklar qoplam, antropogen ta'sirning kuchayishi, atmosfera, mineral xom-ashyo, tabiiy resurslar.

Kirish. Tabiatni muhofaza qilish, tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlagan holda, ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go'zalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari, bu yer yuzidagi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar, har bir odam tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi. Bugungi kunda biz yashab turgan, doimiy munosabatda bo'lib, kelayotgan ona zamin, yerda hayotning paydo bo'lishi, tabiiy muhitning uzoq geologik davrlar - 4,5–4,7 milliard yillar mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta'sirida, ya'ni quyosh nuri, yerning gravitatsiya kuchi, ko'lami, aylanma va tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o'zgarishi, ekzogen jarayonlar ta'siri, organik dunyoning paydo bo'lishi va taraqqiyoti ta'sirida tarkib topgan.

Tabiiy muhitning holati o'zaro ta'sir etib turuvchi bir qancha omillarning murakkab majmuida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog'liq bo'lib, bir joyning iqlimi quyosh nurining tushish burchagiga, ya'ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoq yoki yaqinligi hamda oqimlari va boshqalarga uzviy va chambarchas holda bog'liq bo'ladi. O'simliklar qoplam, esa iqlim, yer yuzidagi tog' jinslari, relyef, tuproqlar bilan chambarchas bog'liq hamda bu tabiiy omillarning bittasida o'zgarish ro'y bersa, tabiiy muvozanat buziladi, bu esa tabiiy muhitning o'zgarishiga olib keladi. Ba'zan, tabiatning biror komponentiga ko'rsatilgan ma'lum bir ta'sir hech kutilmagan katta o'zgarishlarga, xususan, xavfli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro chambarchas bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'ladi, undan o'ziga kerakli narsalarni oladi, shu muhitda moslashib boradi hamda muhit tarkibiga, undagi modda va energiya aylanma harakatiga

MUNDARIJA

III sho'ba. Qayta tiklanadigan resurslar va muqobil energiya manbalaridan foydalanish holati va samaradorligini oshirish yo'llari.	2
S.Sh. Hakimova, Sh.M. Mirzayev, J. R. Qodirov. QOVUNLARGA DASTLABKI ISHLOV BERISH USULLARI (sharh)	3
Azimov Tokhir Dzhurayevich, Azimov Alisher Tokhirovich, Khushnaye Obid Akhmatovich, Tairova Nafisa Sabirzhanovna. THE IMPORTANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ENERGY- SAVING TECHNOLOGIES IN THE DIGITAL ECONOMY	6
S.Sh. Hakimova, Sh.M. Mirzayev, J. R. Qodirov. QOVUNNI QURITISHDA QUYOSH ENERGIYASI YORDAMIDA DASTLABKI ISHLOV BERISH	12
Yusupov Sardor Ma'rufjon o'g'li, Tojimirzayeva Hayrixon Abdushukur qizi. SHAMOL ENERGIYASI UCHUN OPTIMAL JOY TANLASHDA MULTI-KRITERIYALI QAROR QABUL QILISH USULLARI.	15
Кузиев Ботир Намозович, Муртазин Эмиль Рустамович. БУДУЩЕЕ ЭНЕРГЕТИКИ: КАК ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ МОЖЕТ ОПТИМИЗИРОВАТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ.....	18
PhD Boikhanov Zailobiddin urazali ugli, Bakhtiyarov O'tkirbek Jaxongir oglu. Analysis of static and dynamic characteristics of asynchronous motors in green energy systems.....	21
Boixanov Zailobiddin Urazali o'g'li, Baxtiyarov O'tkirbek Jaxongir o'g'li.	22
Yashil energiya tizimlarida asinxron motorlarning statik va dinamik tavsiflarini tahlil qilish.	22
Boikhanov Zailobiddin Urazali ugli, Ortikov Alinur Ikhtiyorovich. The Effect of Solar Panel Energy on the Frequency Converter System of an Asynchronous Motor	26
Boixanov Zailobiddin Urazali o'g'li, Ortiqov Alinur Ixtiyorovich. Quyosh panelidan olingan energiyaning asinxron motor chastota o'zgartgich tizimiga ta'siri.....	27
Qodirov Bahodir Tursunovich, Razzaqov Muhammad Qodir Baxtiyorjon o'g'li. YASHIL IQTISODIYOTDA QUYOSH PANELLARINING ROLI	31
Qodirov Baxodir Tursunovich, Razzaqov Muhammad Qodir Baxtiyorjon o'g'li. THE ECONOMIC SIDE IS THE PRODUCTION AND PERFORMANCE OF SOLAR PANELS.....	35
Yulchiyev Asiljon Ortiqali o'g'li. QAYTA TIKLANADIGAN RESURSLAR VA MUQOBIL ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHNING TURIZM SOHASIDAGI AHAMIYATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	39
Zaylobiddin Boixanov, Raximberdiyev Sardorbek. Quyosh panellari yuzasini tozalash va yangi texnologik usullari joriy etish.....	45
Рустамова Махфуза Махмудовна. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ РЕСУРСОВ И АЛЬТЕРНАТИВНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ: ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	49
Султонова Шахло Акбаровна. Изучение опыта зарубежных стран в развитии нефтегазового комплекса	52
Шилец А.Н., Дарибекова Н.С. ПРОБЛЕМЫ ЗАГРЯЗНЕНИЯ ВОЗДУХА В РЕСПУБЛИКЕ КАЗАХСТАН	54
Nazarov Xusanbek Avazbek o'g'li. O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HISOBIGA QAYTA TIKLANMAYDIGAN ENERGIYA RESURSLARINI TEJASH.....	57
Ahmadjonova Umida Tojimurodovna. YASHIL ENERGETIKA: O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING ASOSI.....	60
Ahmadjonova Umida Tojimurodovna. O'ZBEKISTONDA GELIOTEXNIKA SOHASINI RIVOJLANISHI	63
Boltaxo'jayeva Izzatoy O'lmasxo'ja qizi. QAYTA TIKLANADIGAN RESURSLAR VA MUQOBIL ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	65
Dadabayeva Mamlakat Uralovna. O 'zbekistonda "yashil energetika"ni rivojlantirish	

KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH.....	236
Sotvoldiyeva Muslimaxon G'ayratjon qizi. SIRKULAR IQTISODIYOT TAMOIYILLARI VA ULARNI AMALIYOTGA JORIY ETISH – CHIQINDISIZ ISHLAB CHIQARISH, RESURLARNI QAYTA ISHLASH, EKOLOGIK BARQARORLIK.....	241
Абдуллаев Абдупатто Салимович. Автомобилларнинг чиқинди газларидаги ифлослантирувчи моддаларни аниқлаш усуллари	245
V sho'ba. Agrosanoat majmuasida resurslarni tejoychi va innovatsion texnologiyalarni qo'llash va atrof-muhitni oqilona boshqarish.....	248
Муртазаев Олим, Муртазаев Акбархон Олимович. Қишлоқ хўжалигида меҳнат ресурслари ва аҳоли бандлигига доир масалалар	248
Beknazarova Gulnara Jumabayevna. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR.....	253
Baratov Nortoqi Baratovich, Rayimqulov Oxunjon Qurbonaliyevich. PAXTA TERISH MASHINASINING YENGILLASHTIRILGAN SHPINDELLARINI TAYORLASH TEXNOLOGIYASI	256
Dadayev S.D., Paluanliyazova D.A. QORAQALPOG'ISTON MAYDA SHOXLI MOLLARI NEMATODALARINING SISTEMATIK HOLATI VA ULARNI TARQALISHI.....	261
Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich, KO'P UKLADLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KLASHTERLASH VA KOOPERATSIYALASH JARAYONLARINING ROLI	269
Mamatov Baxadir Safaraliyevich. AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTISIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	275
Tangirov Abdulkholiq Egamovich. FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF DESERT-PASTURE LIVESTOCK FARMING	278
t.f.d., prof. Sherquliyev Doniyor Shermamatovich, Xamdamova Zebuniso Shodmon qizi, Xamdamov Doniyor Mahammadovich. SUVNI TOZALASH INNOVATSION QURILMALARINING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI VA QO'LLANILISHI ..	284
Кулдашев Эркин, Абдувахобов Аббосбек. АГРОСАНОАТ МАЖМУИНИ РАҚАМЛИ БОШҚАРИШ – ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎНАЛИШИДИР	286
Рустамова Ирода Бахромовна, Дехканова Нилуфар Сагдуллаевна, Галимова Фирюза Рафиковна, Мадиев Шахзод Шодмон ўғли. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ.....	292
Eshonqulov Javohir Sobirovich, Ashurov Dilshodbek To'liqin o'g'li. AGROSANOAT MAJMUALARIDA RESURLARNI TEJOVCHI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	299
Xodjayev Anvar Rasulovich, AGROFRANCHAYZING AGROSANOAT SOHASIDA RESURLARNI TEJOVCHI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES TARMOG'INI KENGAYTIRISH.....	302
Рашидов Н.Ш., Алиев Б.А. ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ.....	305
Dexkanova N.Sh. KIMYO SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA RESURS TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISH	308
Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Muhammadov Amirbek. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda qishloq xojaligi mahsulotlarini yetishtirish va agroxizmat ko'rsatishni rivojlantirish.....	313
Kadirova Maral Matyakubovna, Zohidov Olmosbek. Organik agro oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish yo'llari	319
Ramazonov Baxtiyor Ramazonovich. ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA TABIIY RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH	324
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich. SUG'ORILADIGAN QISHLOQ XO'JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISH HOLATI, SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI	